



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TANGA-PUL MUNOSABATLARI

Tojiyev Jasur

Termiz davlat universiteti magistranti

Tel: +99891 970-06-33 Tjasur94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7386568>

ARTICLE INFO

Received: 20th November 2022

Accepted: 29th November 2022

Online: 30th November 2022

KEY WORDS

Amir Temur, kumush tangalar,
Ibn Arabshoh, Mirzo Ulug'bek,
Termiz arxeologiya muzeyi,
Chig'atoy ulusi, oltin tanga.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Temur va Temuriylar tomonidan tangalar zarb etilishi, shuningdek tangalarda hukmdorlarni qanday nomlar bilan qaysi shaharlarda zarb ettirganliklari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tarixdan ma'lumki o'rta asrlar islom olamida har bir davlat asoschisi mutlaq mustaqil ekanligini avvalo xutbaga o'z nomini qo'shib o'qitish orqali va keyingi, eng muhim belgi o'z nomidan tanga pullar zarb ettirishi orqali butun olamga ma'lum qilgan. Buyuk ajdodimiz Amir Temurning ham bu boradagi faoliyati e'tiborga molikdir.

1370-yilda Chig'atoy ulusida Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganida o'z nomidan tanga zarb qilish masalasi turar edi.¹ Bu vaqtgacha Chig'atoy ulusida Kebekxon 1321-yilda o'tkazgan pul islohoti natijasida yagona namuna bo'yicha, og'irligi 1.4 gramm bo'lgan kumush dirhamlar hamda og'irligi 8 grammga yaqin bo'lgan kumush dinorlar zarb qilish yo'lga qo'yilgan edi. 1

kumush dinor 6 dirhamga teng kellar edi². Bugunda bir guruh olimlar Amir Temur esa hokimiyat tepasiga kelib o'z nomidan tangalar zarb ettirmagan, har qalay uning nomi bilan zarb etilgan tangalar dastlabkilari 1372-yil sa'nasi bilan uchraydi-deb ta'kidlashsa³, boshqa bir olimlar Amir Temur o'zining birinchi tanga pullarini 774/1372-1373 yilda chig'atoy xonlari andozasi bo'yicha zarb ettirganini, lekin 1380-yillarga kelib pul islohoti o'tkazib, yangi namunadagi pullarni shu nomidan zarb ettirganini takidlashadi⁴. Demak qisqa muddat davomid saltanatda Kebekxon islohoti natijasida zarb etish boshlangan mo'g'ul xonlari tangalari muomalada bo'lgan. Amir Temur oltin, kumush va mis tangalar zarb ettirgan, ammo oltin tangalarni kamdan kam zarb

¹ U.SHapulatov, M.Normuminov. TREASURE OF COINS FOUND QIRQQIZ MONUMENT. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 11, November 2021 SJIF 2021 = 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02518.0

² T.Ernazarova, B.Kochnev. Tangalar o'tmish darakchilari. T., "Fan".1977. 27-b

³ T.Ernazarova, B.Kochnev. Tangalar o'tmish darakchilari. T., "Fan".1977. 27-b

⁴ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylarning pul-moliya siyosati. T., "O'zbekiston". 2006. 41-b



ettigan. Jumladan, 1380-yilda Samarqand va Xorazimda miqdorda oltin tangalar zarb ettirgan⁵. Amir Temur zarb ettira boshlagan tangalar qator hususiyatlari bilan boshqa davr tangalaridan tubdan farq qilgan. Zarb qilingan tangalarga bosilgan tamg'alar shular jumlasidandir. Ular asosan dumaloq, to'rtburchak va gul (asosan anor) ga o'xshash naqshlar va hokazolardan iborat bo'lgan. Tangalarda Amir Temur nomi bilan birgalikda taxtga chiqarilgan saqti mo'g'ul xonlari nomi ham qo'shib zarb etilgan. 1372-1388 yillarda Suyurg'atmishxon, uning vafotidan so'ng o'g'li Sulton Mahmudxon nomi bilan 1402-yilgacha, ya'ni vafot etguniga qadar zarb etilgan. Amir Temur kumush tangalarini 6 grammlisi tanga, 1.5 grammlisi esa "amiri" yoki "miri" deb nomlangan⁶.

Amir Temur tangalarida biz arabcha, forsha, turkcha va mo'g'ulcha so'zlarni o'qiymiz, masalan arabcha *خلد الله سلطانه* (Alloh uning podshohligi va sultonligini boqiy qilsin), forsha- ضرب (zarb), turkcha - *سوزم* (so'zim), *يورليغي* (yorlig'i) va mo'g'ulcha- *اکمنو* (akmanu-mening so'zim), *کورکان* (kuyov) kabi so'zlarni uchratamiz⁷.

Amir Temur hukmronligi yillarida (1370-1045) nafaqat Movarounnahrning markaziy shaharlarida, balki Xuroson, Eron, Ozarbayjon hududlarida chunonchi, Astrabod, Ashpara, Boku, Basra, Bag'dod, Bomiyon, Damg'on, Darband, Yazd, Isfahon, Koshon, Qarshi, Kermon, Qum, Mordin, Mahmudobod, Mashhad, Sova, Samarqand, Sultoniya, Tabriz, Xorazim, Shabanka,

Sheroz, Shamaxa va Hirot kabi 40 ga yaqin shaharlarda zarb qilingan⁸.

Yana manbalarda yuqorida tilga olingan hududlardan boshqa yana Hindiston, Turkiya, Shom va Misr hukmdorlari ham Amir Temur nomidan oltin va kumush tangalar zarb ettirganligi ma'lum bo'ladi. Masalan Ibn Arabshoh shunday ma'lumot beradi: "Turk sultoni Boyazid ustidan g'alaba qilganligidan so'ng uning o'g'illaridan Isfandiyor (Amir) Temur huzuriga kelib itoat izhor etdi. Isfandiyorni Rumdagi o'z martabasiga barqaror etdi va unga o'z atrofidagi amirlariga Mahmudxon va Amir Temur ko'ragon nomi bilan xutba o'qitib, pul zarb etishlarini amr etdi."⁹. Yana bir tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy esa o'z "Zafanoma"sida: "Amir Temurning turk sultoni ustidan g'alabasidan so'ng Misr va Shom hukmdori Malik Nosir Amir Sohibqironga muholifat bo'lish mumkin emasligini anglab, o'z taqdiri omonligini tilab, Amir Temur nomiga xutba o'qitib tangalar zarb qildi" deb ma'lumot beradi¹⁰. Albatta bu davrda davlat oltin va kumush tangalar sofliigi va vazniga alohida e'tibor berib, nazorat qilgan. Ayni chog'da bu tangalarda mahalliy bezaklarning o'ziga xosligi, nafisligi ham saqlab qolingan bo'lib Hirot, Mashhad, Isfahon, Tabriz va Bag'dodda zarb qilingan tangalarda bu xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Amir Temur tangalarining yana bir o'ziga xos jihati shundaki 1403-yil 13-mart sanasida sevimli nabirasi va valiahd shahzoda Muhammad Sulton vafot etadi. Natijada qat'iy qayg'uga botgan Amir

⁵ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylarning pul-moliya siyosati. T., "O'zbekiston". 2006. 41-b

⁶ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylarning pul-moliya siyosati. T., "O'zbekiston". 2006. 41-b

⁷ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylar sulolasining tangalari. T., "Fan". 1992.14-b

⁸ А.Г.Казанцев. Исламские монеты VII-XVI веков. Екатеринбург., 2016. С-136

⁹ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob, T., "Mehnat". 1992. 278-b

¹⁰ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T., "Sharq". 1997. 271-b



Temur vafot etgan nabirasi xotirasini yodga olish uchun uning nomidan tangalar zarb ettiradi. Tangalarga سلطان محمد خان امير تیمور کور کان امیر زادہ محمد سلطان ضرب سمر قند (Sulton Mahmudxon Amir Temur ko'ragon amirzoda Muhammad Sulton, zarb Samarqand) yozuvi bitiladi. Ya'ni tilga olingan uch shahslar Mahmudxon, Amir Temur va Muhammad Sultonlardan bu vaqtga kelib faqatgina Amir Temurgina hayot bo'lgan. Rasman xon sanalgan Marhum Suyurg'atmishxon o'g'li Mahmudxon vafot etganiga bir muddat bo'lganiga qaramasdan Amir Temur taxtga boshqa qo'g'irchoq xon chiqarishni istamay faqatgin Mahmudxon nomidan tangalar zarb ettirib turgan edi. Natijada ana endi suyukli nabirasi vafoti munosabati bilan uning ham nomini o'z nomi bilan bir qatorda tangalarda zarb ettirgan¹¹.

Amir Temur vafotidan keyin hokimyatni egallagan boshqa bir nabirasi Xalil Sulton zarb ettirgan tangalariga e'tibor beradigan bo'lsak shunday ismlarga ko'zimiz tushadi: سلطان محمد جها نگیر امان الزمان امیر خلیل سلطان (Sulton Muhammad Jahongir omon az-zamon amir Xalil Sulton xoldoloh mulikixu. 807/1404-1405) so'zini o'qishimiz mumkin. Demak Samarqandni egallagan Xalil Sulton bevosita taxtga o'zi o'tirmagan, balki taxtga Amir Temurning marhum suyukli nabirasi, taxt vorisi Muhammad Sultonning o'g'li Jahongir Mirzoni taxtga chiqargan¹². Amir Temurning o'g'li Shohruh mirzo hokimyatni o'z qo'liga olgach tangalarini old tomoniga iymon keltirish kalimasi va 4 xalifaning nomini, orqa tomoniga esa نه سلطان الاغظم شاه رح بها در حلد الله ملكه و سلطا

(Sulton az-zamon Shohrh bahodir xaldoloh mulikuxu va sultonaxu)¹³.

Temuriylardan faqatgina Shohruh mirzo o'g'li Mirzo Ulug'bek tangalarida Bobosi Amir Temurning tamg'asi va Sohirqironning nomi esga olinadi.

تیمور کور کان همتی دین الغ بك کور کان سو زم ضرب سمر قند ۸۵۳ (Timur Ko'ragon himmatidin Ulug'bek so'zim: zarb Samarqand 853/1449)¹⁴.

Mirzo Ulug'bek ham tanga zarb etishga bobosi kabi e'tiborli bo'lib pul islohoti o'tkazadi. 1428-avvalgi mis tangalar savdoda ishlatilishi taqiqlanib, uni yangi mis tangalarga almashtirilishi mumkinligi to'g'risida qaror chiqariladi. Eski tangalarni almashtirishga qulay bo'lishi uchun Andijon, Toshkent, Shohkuhiya, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz va Hisorda yangi pullar yagona nusxa bo'yicha zarb qilinadi. Pul almashtirish jarayoni o'z nihoyasiga yetgach Buxorodan tashqari barcha zarbxonalar yopiladi¹⁵.

1428-1429 yillarda Buxoroda zarb qilingan pullar nafaqat Buxoroda balki butun O'rta osiyoda keng tarqalganligining sababi ushbu sa'na bilan keyingi yillarda ham tangalar zarb ettirilgan¹⁶.

Bugungi kunda Termiz arxeologiya muzeyi nummizmatika fandida jami 28 000 ekspanat saqlansa, ushbu ekspanatlar ichida Temur va temuriylar davriga oid bo'lgan tangalar salmog'i katta sanaladi¹⁷.

¹³ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylarning pul-moliya siyosati. T., "O'zbekiston". 2006. 60-b

¹⁴ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylarning pul-moliya siyosati. T., "O'zbekiston". 2006. 64-b

¹⁵ Е.А.Давидович. История денежного обращения средневековой Средней Азии. Москва., Наука.1983.с-34

¹⁶ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylarning pul-moliya siyosati. T., "O'zbekiston". 2006.65-b

¹⁷ Normuminov, M. B. (2020). Coins from the time of Amir Temur and the Temurids kept in the funds of the Termez archaeological museum. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (87), 336-342.

¹¹ Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylar sulolasining tangalari. T., "Fan". 1992. 16-b

¹² Irpon To'xtiyev. Amir Temur va temuriylar sulolasining tangalari. T., "Fan". 1992. 54-b



Temur va Temuriylar davriga oid numizmatika eksponatlarining katta qismi, muzey tashkil etilayotganida, o'z vaqtidagi O'lkashunoslik muzeyi numizmatika bo'limidan qabul qilingan tangalar tashkil etadi. Shundan xulosa qilish mumkinki ushbu eksponatlar XX asrning 40-yillaridan boshlab viloyat hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot natijasida va tasodifiy topilmalar natijasida boyib borgan¹⁸.

Shu kunga qadar ushbu tangalarning katta qismi umumn o'rganilmagan va kataloglari tuzib chiqilmagan. Tangashunos mutaxassislar yetishmaganligi tufayli faqatgina dastlabki ma'lumotlari asosida kirim kitoblari va fond hujjatlarida umumiy nom ostida saqlab kelinmoqda.

Misol tariqasida muallif tomonidan **KK 11999** raqami ostida saqlanayotgan tegishli hujjatlarda "Amir Temurning Samarqandda zarb ettirgan kumush tangalari" deb yozilgan tangalarni bir nechta ko'zdan kechirilganida ushbu tangalar Suyurg'atmishxon va Amir Temur, Mahmudxon va Amir Temurning Samarqand, Xorazim, Tabriz va Isfahonda zarb ettirgan tangalari ekanligi ma'lum bo'ldi¹⁹.

Xulosa o'rnida shuni aytish mukinki ushbu fondga saqlanoyotgan tangalarni o'rganish orqali Amir temur va temuriylar davriga bog'liq bo'lgan ko'pgina tariximizga noma'lum bo'lgan sahifalarga javob topilsa.

¹⁹ Normuminov, M. B. (2020). Coins from the time of Amir Temur and the Temurids kept in the funds of the Termez archaeological museum. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (87), 336-342.



References:

1. Ирпон Тўхтиев. Амир Темур ва темурийларнинг пул-молия сиёсати. Т., “Ўзбекистон”. 2006
2. Ирпон Тўхтиев. Амир Темур ва темурийлар сулоласининг тангалари. Т., “Фан”. 1992
3. Т.Эрназарова, Б.Кочнев. Тангалар ўтмиш даракчилари. Т., “Фан”.1977
4. А.Г.Казанцев. Исламские монеты VII-XVI веков. Екатеринбург., 2016
5. Е.А.Давидович. История денежного обращения средневековой Средней Азии. Москва., Наука.1983
6. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Т., “Шарқ”. 1997
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 1-китоб, Т., “Меҳнат”. 1992
8. Рюи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. “Санъат” журналы. 1990. №9
9. Normuminov, M. B. (2020). Coins from the time of Amir Temur and the Timurids kept in the funds of the Termez archaeological museum. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (87), 336-342.
10. U.Shapulatov, M.Normuminov.TREASURE OF COINS FOUND QIRQQIZ MONUMENT. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 11, November 2021 SJIF 2021 = 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02518.0